



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 11 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 11

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 11



ТОШКЕНТ-2025

**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИБ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Сайнова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайдон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Курбанов Бахтияр Журабаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Наманган давлат университети

**Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
*Масъул котиб*

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Баҳадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Юсупов Аҳмеджон Шоназарович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Urganch davlat universiteti

**Тиллажаева Хуршида Джумаваевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Тошкент давлат техника университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
*Масъул котиб*

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

**Турсунова Юлдуз Бобоқуловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Азаматова Гулмира Байирбековна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Каримжонов Жасурбек Мухторжонович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Ўзбекистон Миллий университети

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


<b>1. Рахбар Муртазаева</b> МАРКАЗИЙ ОСИЁ МИНТАҚА ДАВЛАТЛАРИДА ИЛМ-ФАННИНГ ФЕМИНИЗАЦИЯЛАШУВИ.....	5
<b>2. Тўлқин Алиев</b> ТОШКЕНТ ШАҲРИДА КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИ.....	16
<b>3. Нодирабегим Ваисова</b> ВКЛАД Ю.Ф. БУРЯКОВА В ИССЛЕДОВАНИЕ ИСТОРИИ СОГДИАНЫ.....	25
<b>4. Sevara Elmurodova</b> MUSTAQILLIK YILLARIDA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR.....	32
<b>5. Risqiniso Maxmudova</b> O'ZBEKISTON SSRDA ALIFBO SIYOSATINING GEOSIYOSIY MAQSADLARI.....	38
<b>6. Mohira Matnazarova</b> ILK TEMIR DAVRIDA OROLBO'YI KO'CHMANCHI AHOLISINING IJTIMOIIY-IQTISODIY HAYOTI.....	44
<b>7. Nargiza Raxmatova</b> O'RTA OSIYO XALQLARI MUSIQA MADANIYATI TARIXIDAN.....	48
<b>8. Фаррух Разаков</b> СТАНОВЛЕНИЕ ПОЛИТИЧЕСКИХ И ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ СВЯЗЕЙ ОСМАНСКОЙ ИМПЕРИИ С ГОСУДАРСТВОМ ШЕЙБАНИДОВ.....	54
<b>9. Hilola Normamatova</b> CHOCHDA ZARB ETTIRILGAN G'ARBIY TURK XOQONLIGI TANGALARIDAGI DINIY- SIYOSIY RAMZLAR.....	63
<b>10. Нодира Холмонова</b> РОССИЯНИНГ ХИВА ХОНЛИГИДА ЮРИТГАН ИҚТИСОДИЙ - ПУЛ СИЁСАТИ (айрим тадқиқотлар мисолида).....	67
<b>11. Rashid Xolmurodov</b> JIZZAX VILOYATIDA TURIZMNING RIVOJLANTIRILISHI.....	72
<b>12. Davlatbek Qudratov</b> O'ZBEKISTON VA BANGLADESH: ISLOM HAMKORLIK TASHKILOTI DOIRASIDA IQTISODIY VA GUMANITAR HAMKORLIK ISTIQBOLLARI.....	79



**Mohira Uktamovna Matnazarova,**  
Urganch davlat universiteti  
Tarix kafedrası Phd., dotsenti  
e-mail: matnazarovamokhira4@gmail.com

## ILK TEMIR DAVRIDA OROLBO‘YI KO‘CHMANCHI AHOLISINING IJTIMOIIY-IQTISODIY HAYOTI

**For citation:** Mohira U.Matnazarova. SOCIO-ECONOMIC LIFE OF THE NOMADIC POPULATION OF THE ARAL SEA REGION IN THE EARLY IRON AGE. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 11.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17966905>

### ANNOTATSIYA

Amudaryoning quyi havzalari va o‘zanlari bo‘ylarida to‘qayzor, qamishzorlarning keng maydonlari, serunum yaylovlar bo‘lib, ular chorvachilik xo‘jaligining taraqqiy etishi uchun juda qulay edi. Qadimgi Xorazm vohasining chorvachilik uchun qulay muhiti eng qadimgi davrlardan ko‘chmanchi chorvadorlarning kelib o‘rnashishiga sabab bo‘lgan. Yozma manbalar va arxeologik ma‘lumotlar Xorazm vohasida mil. avv. VI asrda tub o‘zgarishlar yuz berganligini va bu jarayonlar ilk temir davriga oid Amirobod va Quyisoy madaniyatlari bilan bog‘liq bo‘lmaganligini ko‘rsatadi. Mil. avv. IX–VIII asrlarda Amirobod madaniyati Amudaryoning Oqchadaryo deltasi hududlarida tarqalgan bo‘lib, tadqiqotchilarning fikricha, bu madaniyatni yaratgan aholi dastlab Volga – Ural oralig‘ida yashagan chorvador aholi bo‘lgan.

**Kalit so‘zlar:** voha, geografik sharoit, Qizilqum, Ustyurt platosi, Orol dengizi, qamishzorlar, Amirobod, Tolstov.

---

**Махира Уктамовна Матназарова,**  
Ургенчского государственного университета  
PhD, доцент кафедры Истории  
e-mail: matnazarovamokhira4@gmail.com

## СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЖИЗНЬ КОЧЕВОГО НАСЕЛЕНИЯ ПРИАРАЛЬЯ В РАННЕМ ЖЕЛЕЗНОМ ВЕКЕ

### АННОТАЦИЯ

В низовьях и по руслу Амударьи располагались обширные тугайные леса, тростниковые заросли и плодородные пастбища, что создавало весьма благоприятные условия для развития животноводческого хозяйства. Благоприятная для скотоводства среда древнего Хорезмского оазиса способствовала притоку и расселению кочевых скотоводов с древнейших времен. Письменные источники и археологические данные свидетельствуют о том, что в Хорезмском оазисе в VI веке до н.э. произошли фундаментальные изменения, и эти процессы не были связаны с амиробадской и куисойской культурами раннего железного

века. В IX–VIII веках до н.э. амиробадская культура была распространена в дельтовых районах Акчадарьи Амударьи, и, по мнению исследователей, население, создавшее эту культуру, изначально проживало в Волго-Уральском междуречье и являлось скотоводческим.

**Ключевые слова:** Оазис, географические условия, Кызылкум, плато Устюрт, Аральское море, тростниковые заросли, Амиробод, Толстов.

**Mohira Uktamovna Matnazarova,**  
Urgench State University,  
PhD, Associate Professor of the Department of History  
e-mail: matnazarovamokhira4@gmail.com

## **SOCIO-ECONOMIC LIFE OF THE NOMADIC POPULATION OF THE ARAL SEA REGION IN THE EARLY IRON AGE**

### **ABSTRACT**

The lower basins and channels of the Amu Darya featured extensive areas of tugai forests, reed beds, and fertile pastures, which created highly favorable conditions for the development of livestock farming. This propitious environment of the ancient Khorezm oasis attracted nomadic pastoralists to settle in the region from the earliest periods. Written sources and archaeological data indicate that fundamental changes occurred in the Khorezm oasis in the 6th century BCE, and that these processes were unrelated to the Early Iron Age Amirobod and Quvisoy cultures. In the 9th–8th centuries BCE, the Amirobod culture was widespread in the Akchadarya Delta regions of the Amu Darya, and researchers suggest that the population which created this culture were originally pastoralists who had inhabited the Volga-Ural interfluve.

**Index Terms:** Oasis, geographical conditions, Kyzylkum, Ustyurt plateau, Aral Sea, reed beds, Amirobod, Tolstov.

### **Dolzarblygi:**

Xorazm vohasining tabiiy iqlim va geografik sharoiti chorvachilik xo'jaligini rivojlantirish uchun qulay. Voha hamma tomonidan cho'llar bilan o'ralgan: Uning janubida Qoraqum, sharqida Qizilqum, g'arbida Orol-Kaspiy pasttekisligi va Ustyurt platosi joylashgan. Shimoliy tomondan Orol dengizi va Qozog'istonning keng cho'l hududlariga tutashib ketishi ko'chmanchi chorvadorlarning harakatlanishi uchun katta imkoniyat yaratgan. Amudaryoning quyi havzalari va o'zanlari bo'ylarida to'qayzor, qamishzorlarning keng maydonlari, serunum yaylovlar bo'lib, ular chorvachilik xo'jaligining taraqqiy etishi uchun juda qulay edi.

Qadimgi Xorazm vohasining chorvachilik uchun qulay muhiti eng qadimgi davrlardan ko'chmanchi chorvadorlarning kelib o'rnatilishiga sabab bo'lgan.

S.P.Tolstov Amirobod madaniyatini qoldirgan qabilani massagetlar deb ko'rsatadi. Keyingi tadqiqotlarda bu jihatga kam e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, ba'zi arxeolog olimlar S.P.Tolstovning fikriga qo'shiladilar. Bular ilk sak qabilalari bo'lib, ular o'zlaridan vtulkasimon ikki parrakli yassi kamon o'qlarini qoldirishgan. Bu o'qlar mil. avv. VII – VI asrlarga oid skiflarning o'q uchlariga o'xshaydi. Tadqiqotchilarning fikricha, amirobodliklarning tabiiy suv irmoqlarini dalalarga yo'naltirishlari jarayonida kanallar uzaygan, kengaygan va tarmoqlangan. S.P.Tolstovning yozishicha, mil. avv. VIII asr oxiridan boshlab kengligi 40 metrga yetadigan yirik sun'iy kanallar bunyod etila boshlangan[6].

### **Metodlar:**

Maqolada umumqabul qilingan ilmiylik, tarixiylik, qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Mavzuni o'rganishda tarixiy manbalar va ilmiy-tadqiqot natijalaridan foydalanildi.

### **Tadqiqot natijalari:**

S.B.Bolelov amirobodliklarning hunarmandchiligini tadqiq qilgan. Olim Yakka Parson 2 yodgorligi yarim yerto'lasidan toshdan ishlangan 4 ta bronza quyish qolipi va mis qorishmasi tomchilari saqlanib qolgan tigel bo'laklarini aniqlagan[3]. Tadqiqotchilar bu yarim yerto'laga

“metall quyuvchining uyi” deb nom berishgan. Tosh qoliplardan ikkitasi kamon o‘qi uchun mo‘ljallangan bittasi esa o‘roq qolipi bo‘lgan. Yodgorlikdan pichoq, o‘roq, bronza ko‘zgu, bigiz, bilaguzuklar, yorg‘uchoq, xovoncha kabi uy-ro‘zg‘or va dehqonchilik buyumlari topilgan. Amirobodliklar hunarmandchilik mahsulotlarini jamoa a‘zolarining ichki kundalik ehtiyojlari uchun ishlab chiqarishgan.

Ustyurt hududida ko‘chib yurgan chorvadorlarning arxeologik yodgorliklari V.N.Yagodin tomonidan tadqiq qilingan. Qozibobo I mozor – qo‘rg‘onlari o‘rganish asosida undan foydalanishning 3 ta bosqichi aniqlagan[8]:

1. “savromat bosqichi” – mil. avv. VI asrning oxiri – mil. avv. IV asrning boshi.
2. Ilk sarmat davri – mil. avv. IV–III asrlar.
3. So‘nggi sarmat davri – milodiy II–IV asrlar.

Janubiy Xorazm hududidan mil. avv. VIII–V asrlarga oid ko‘chmanchi chorvadorlar madaniyati – Meshekli va Uch o‘choq yodgorliklari topilgan [1]. Bu yodgorliklar saklar, ya‘ni avtoxton chorvador qabilalarning qabrlari hisoblanib, Tuyamo‘yin havzasi bo‘ylarida joylashgan[2]. Ularning qabrlari Quysisoy madaniyatidan farq qilgan.

Yozma manbalar va arxeologik ma‘lumotlar Xorazm vohasida mil. avv. VI asrda tub o‘zgarishlar yuz berganligini va bu jarayonlar ilk temir davriga oid Amirobod va Quysisoy madaniyatlari bilan bog‘liq bo‘lmaganligini ko‘rsatadi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgandek, mil. avv. IX–VIII asrlarda Amirobod madaniyati Amudaryoning Oqchadaryo deltasi hududlarida tarqalgan. Tadqiqotchilarning fikricha, bu madaniyatni yaratgan aholi dastlab Volga – Ural oralig‘ida yashagan chorvador aholi bo‘lgan[9]. Mil. avv. birinchi ming yillikning boshlarida Amudaryo havzasi hududlariga ko‘chib kelishgan. Mil. avv. VIII-VII asrlarda Janubiy Oqchadaryo o‘zanining qurib borishi natijasida amirobodliklar faqat chorvachilik bilan shug‘ullana boshlaganlar[10]. Ular shimoli-sharq, janubi-sharq, g‘arbiy va janubiy tomonlarga ko‘chib ketishgan. Shimoliy Oqchadaryo bo‘ylari, Sirdaryoning quyi oqimi va Sariqamish o‘zani bo‘ylarida ham ulardan qolgan yodgorliklar aniqlangan.

S.R.Bolelov Qadimgi Xorazmdagi mil. avv. VII–VI asrlarga oid yodgorliklarning sopol idishlari loyini mezomorfologik tadqiqot qilib, ularning 4 ta morfotipini aniqlagan[4]. Ko‘zaliqir, Quysisoy, Sakar–Chaga – 6 yodgorliklaridagi sopol idishlarning loy tarkibi bir xil bo‘lib, ularning aksariyati quysisoy tipidagi sopol idishlar ekanligi asoslangan. Ko‘zaliqir sopol buyumlarining tashqi tuzilishi va loy tarkibi Xumbuztepa sopol idishlaridan butunlay farq qilishi aniqlangan.

Ko‘zaliqir sopol buyumlariga o‘xshash sopol idishlar Bozorqal‘a, Kaltaminor kanali bo‘ylaridan ham aniqlangan. Bu esa amirobodliklarning keng hududlarga tarqalib ketganligini ko‘rsatadi.

Ko‘zaliqir yodgorligida ikkita qurilish bosqichi aniqlangan. Birinchi qurilish bosqichidagi yodgorlikda katta yong‘in izlari kuzatiladi. Yodgorlik vayron bo‘lgach, u qayta tiklangan. Bunda uning hududi yana 13 gektarga kengaygan. Tadqiqotchilar Ko‘zaliqir yodgorligining birinchi davrini uning ahamoniylar tomonidan bosib olinishi bilan bog‘laydilar[5].

Tadqiqotchilarning fikricha, mil. avv.V asrning oxiri va IV asrning boshlarida Xorazm ko‘chmanchi chorvadorlar yordamida mustaqillikni qo‘lgan kiritgan. Qadimgi Xorazm davlatining ko‘chmanchi qabilalar bilan tuzgan ittifoqi natijasida Ustyurt hududlari chorvadorlar uchun xavfsiz bo‘lgan va qishlov uchun ular shu yerlarga kelishgan. V.N.Yagodinning fikricha, mil. avv. V asrning oxirlari va mil.avv. IV asrning boshlarida bunyod etilgan Katta Oybo‘yir qal‘a ko‘chmanchi chorvadorlar bilan savdo markazi sifatida qurilgan bo‘lishi ham mumkin. Shu davrdan boshlab ko‘chmanchilarning mozor – qo‘rg‘onlari Oybo‘yir hududlarida kuzatilmagan[7].

Qadimgi Xorazm davlati Katta Oybo‘yir qal‘a orqali Janubiy Uralga charxda ishlangan qizil angob bilan bo‘yalgan sopol buyumlarini yetkazgan. Bunday sopol buyumlar Janubiy Uraldagi Proxorov madaniyatiga oid qabrlarda butun holda va singan holda ham topilgan. Bu yodgorlikdan Qadimgi Xorazm davlati hududlarida tarqalgan munchoqlar ham topilgan.

#### **Xulosa:**

Amirobod madaniyati mil. avv. IX–VIII asrlarda shakllangan. Mil. avv. VIII-VII asrlarda ularning turmush tarzida o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Bu, bir tomondan, ularda uzun uylarning

bo'lishi, ikkinchi tomondan, Oqchadaryo o'zanida suvning kamayishi natijasida amirobodliklar migratsiyasining sodir bo'lishidir. Bunday o'zgarishlarni yozma manba ma'lumotlari bilan ham asoslash mumkin. Shu davrda, ya'ni mil. avv. VII asrda, chorvador qabilalarning siyosiy ittifoqi – massagetlar ittifoqi tashkil topgan. Amirobod madaniyati aholisini shu jihatdan ham S.P.Tolstov massagetlar, deb ko'rsatadi.

Shuni aytish lozimki, Xorazm vohasining chegara hududlarida mil. avv. VI-V asrlardan boshlab ko'chmanchi qabilalarning qishlov joylari ko'paygan. Qadimgi Xorazm davlatining butun chegaralari bo'ylab ko'chmanchi qabilalarning faoliyati jonlangan.

#### Iqtiboslar/Сноски/References:

---

1. Баратов С.Р. Новые археологические материалы к истории древнего Хорезма. – С. 30-40. Baratov S.R. New archaeological materials on the history of ancient Khorezm. – P. 30-40.

2. Баратов С.Р. К проблеме истоков урбанизированной культуры низовий Амударьи. – Б. 38. Baratov S.R. On the problem of the origins of the urbanized culture of the lower Amu Darya. – P. 38.

3. Болелов С.Б. Ранний этап становления ремесленного производства на территории Хорезма. – С. 5. Bolelov S.B. The early stage of the formation of craft production in Khorezm. – P. 5.

4. Болелов С.Б. К вопросу о формировании ранней земледельческой культуры в низовьях Амударьи. – С. 40, 41, 43. Bolelov S.B. On the issue of the formation of early agricultural culture in the lower Amu Darya. – P. 40, 41, 43.

5. Рапопорт Ю.А. Хорезм в древности. – С. 29. Rapoport Yu.A. Khorezm in Antiquity. – P. 29.

6. Толстов С.П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. – Тошкент, 1964. – Б. 360; Низовья Амударьи. – С. 183. Tolstov S.P. In Search of Ancient Khorezmian Culture. – Tashkent, 1964. – P. 360; Lower Amu Darya. – P. 183.

7. Вайнберг Б.И. Этногеография Турана... – С. 149. Weinberg B.I. Ethnography of Turan... – P. 149.

8. Ягодин В. Н., Китов Е. П., Мамедов А. М., Жамбулатов К. А. Степные племена на северо-западных границах Хорезма в VI-II вв. до н. э. – II-IV вв. н. э. – С.331. Yagodin V.N., Kitov E.P., Mamedov A.M., Zhambulatov K.A. Steppe tribes on the northwestern borders of Khorezm in the 6th-2nd centuries BCE – 2nd-4th centuries CE. – P. 331.

9. Виноградов А.В., Итина М.А., Яблонский И.Т. Древнейшее население низовий Амударьи (Труды ХАЭЭ. XV) – М., 1986. – С. 148-149. Vinogradov A.V., Itina M.A., Yablonsky L.T. The Earliest Population of the Lower Amu Darya (Works of Khorezm Archaeological-Ethnographic Expedition. XV) – Moscow, 1986. – P. 148-149.

10. Юсупов Х.Ю. Поселение эпохи поздней бронзы на Канга-гыре//Скотоводы и земледельцы Левобережного Хорезма. – М., 1991. – С. 109-112. Yusupov Kh.Yu. A Late Bronze Age settlement on Kanga-gyr // Pastoralists and Farmers of Left-Bank Khorezm. – Moscow, 1991. – P. 109-112.



**Tadqiqot.uz**

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
LOOK TO THE PAST

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000